

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKNING O'RGANILISH TARIXI

Raximova Shodiyona Shuxrat qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: shodiyona.1003@gmail.com

Annotatsiya. Maqola lingvomadaniyatshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanish tarixini, uning til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi. Tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnolingvistika va psixolingvistika kabi sohalar bilan bog'liq ravishda, lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy metodologiyasi va asosiy olimlarining yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolada XX asr oxirida Moskvada shakllangan lingvomadaniyatshunoslik maktablarining metodologik yondashuvlari hamda til va madaniyatning o'zaro ta'siri alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Lingvomadaniyatshunoslik, til va madaniyat, ilmiy metodologiya, filologiya, madaniyatshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika, XX asr, lingvomadaniyatshunoslik maktablari, tilshunoslik.

Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, har bir xalqning madaniyati uning tilida aks etadi. Lingvomadaniyatshunoslik aynan shu bog'liqlikni o'rganadigan fan sohasi sifatida shakllangan bo'lib, uning tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Qadimgi davrlardan beri mutafakkirlar til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganib kelishgan, biroq mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida lingvomadaniyatshunoslik XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan.

Ushbu fan filologiya, madaniyatshunoslik, psixolingvistika, etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, til orqali milliy o'ziga xoslik va madaniy qadriyatlarni o'rganishga qaratilgan. Lingvomadaniyatshunoslikning rivojlanishiga Gumboldt, Sepir, Uorf kabi olimlarning asarlari katta ta'sir ko'rsatgan. Ularning tadqiqotlari til faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning tafakkuri va dunyoqarashini shakllantiruvchi omil ekanini ko'rsatdi.

Zamonaviy lingvomadaniyatshunoslik turli tillar va madaniyatlarni taqqoslash, tarjima jarayonlari, madaniy kodlar va milliy mentalitetni o'rganish bilan ham shug'ullanadi. Ushbu maqolada lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy fan sifatida shakllanish tarixi va asosiy rivojlanish bosqichlari haqida batafsil so'z yuritiladi.

"Lingvokulturologiya" atamasi birinchi bor 1996-yilda V.V. Vorobiov tomonidan yozilgan "Lingvokulturologiyaning nazariy va amaliy jihatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasida qo'llanilgan. 1997-yilda esa u tomonidan "Lingvokulturologiya: nazariya va metodlar" nomli o'quv qo'llanmasi nashr etilgan [5,331].

Tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida lingvokulturologiya rivojiga katta hissa qo'shgan olma V. N. Teliya bo'lib, u til va madaniyatni o'zaro bog'liq holda, ularning sinxroniy o'zaro ta'siri doirasida chuqr tadqiq qilgan [6, 378].

Vilgelm Gumboldt ta'kidlaganidek, til insoniyat taraqqiyotidagi eng muhim antropologik omildir: "Inson faqat til orqali fikrlaydi, his qiladi va yashaydi hamda avvalo til orqali shakllanadi" [8]. Bu nuqtada tilshunoslikning natijalari va yutuqlari falsafa, psixologiya, antropologiya, madaniyatshunoslik, etnolingvistika, hattoki fiziologiya, biologiya kabi bir qator fanlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi.

XX asrning oxirlarida Moskvada lingvomadaniyatshunoslikning 4 ta maktabi vujudga keldi:

1) Yu.S. Stepanov maktabi. Bu maktab metodologik jihatdan E.Benvenist konseptsiyasiga mos kelib, maqsadi diaxron aspektida madaniyatning o'zgarmasligini tavsiflashdir. Uning mundarijasini tasdiqlash uchun turli davrlarga oid matnlarni xolis – tashqaridan turib tahlil qilish kerak [1].

2) N.D.Arutyunova maktabi turli davr va turli xalqlarga oid bo'lgan matnlarda uchrovchi madaniyatning universal terminlarini tadqiq etadi. Bu terminlar ham til egasi sifatida emas, tashqi kuzatuvchi nigohi bilan izohlanadi [2].

3) V.N. Teliya maktabi Rossiya va butun dunyo ilmida Frazeologizmlarni lingvokulturologik analiz qilish Moskva maktabi nomi bilan mashhur. V.N. Teliya va uning izdoshlari til borlig'ini jonli til egasi reflekslari orqali o'rghanadilar, ya'ni madaniy semantika bevosita til va madaniyatning subyekti nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Bunday tadqiq usuli A.Vejbitskayaning qarashlariga mos keladi. Unda so'zlovchining nutqiy faoliyati uning ruhiy holati taqlidi hisoblanadi.

4) V.V. Vorobyov, V. M. Shakleyin va boshqa olimlar tomonidan Rossiya Xalqlar Do'stligi Universitetida tashkil etilgan lingvokulturologiya maktabi, E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovning konseptsiyasini davom ettirgan holda rivojlantirilgan [4].

Lingvomadaniyatshunoslik bu nima degan savolga ba'zi tilshunoslar, lingvomadaniyatshunoslik — etnolingvistikating bir yo'nalishi hisoblanadi desa (V.N. Telia, S.G. Vorkachev, A.T. Xrolenko, A.E. Karlinskiy), boshqalarning fikriga ko'ra esa, bu fan lingvo-mamlakatshunoslikning tarkibiy qismi sanaladi (E.M. Vereshchagin, V.G. Kostomarov, V.P. Oshchepkova) [4]. Yana bir guruh olimlar uni madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasining bir bo'lagi deb hisoblaydi (O.A. Leontovich), ayrimlar esa uni etnopsixolingvistika bilan bog'laydi (Yu.S. Sorokin, V.P. Belyanin) [5].

A.A. Leontyev, N.I. Tolstoy va A.T. Xrolenkolarning fikricha, lingvomadaniyatshunoslik hali mustaqil fan sifatida to'liq shakllanmagan.

Birinchi navbatda, lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishidagi murakkablik til va madaniyat kabi tushunchalarni talqin qilishdagi jiddiy qaramaqarshiliklar bilan bog'liqdir. Madaniyatning 500 dan ortiq ta'riflari mavjud bo'lib, til uchun ham shunday ko'p ta'riflar keltirilgan.

Ikkinchidan, lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishidagi murakkablik shundaki, u vaqt jihatidan ikki katta paradigma — kommunikativ-pragmatik va kognitiv-diskursiv paradigmalarning shakllanishi bilan to'g'ri keladi. Lingvomadaniyatshunoslik ushbu paradigmalarning yutuqlaridan foydalangan holda juda tez rivojlandi. Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanish jarayoni hali

tugamagan, hozirgi kunda tadqiqotning maqsadlari, obyekti va predmetini aniqlash, shuningdek, o‘z metodlarini ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar davom etmoqda.

Lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda Vilgelm Fon Gumboldt o‘zining “Tilning tuzilishi va insoniyat ma’naviy rivojiga ta’siri” kitobi bilan tamal toshini qo‘ygan bo‘lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida qayd etgan edi. Ayniqsa, uning “turli tillar, o‘z xususiyatlari, fikrlash va his-tuyg‘uga ta’siriga ko‘ra amalda turlichay dunyoqarashni ifodalaydi”, “tilning o‘ziga xos xususiyatlari millatning o‘zligiga ta’sir qiladi, shuning uchun tilni chuqur o‘rganish tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog‘lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak” kabi fikrlari keng tarqalgan.

Yu.S. Stepanov “Konstantlar: Rus madaniyati lug‘ati” asarini yaratib, rus tilida faol qo‘llaniladigan va ushbu til egalarining dunyoqarashida muhim o‘rin tutadigan konseptlarni jamlagan hamda ular haqida batafsil ma’lumot bergan [12]. Ushbu kitobda muallif rus madaniyatining o‘ziga xos belgilarini aniqlab, ularning tarixiy shakllanishi, lingvistik xususiyatlari va jamiyatdagi roli haqida keng izoh beradi. Shuningdek, u madaniy konstantlar tushunchasini asoslab, ularning vaqt o‘tishi bilan qanday saqlanib qolishi yoki o‘zgarishini ko‘rsatib beradi. Stepanovning yondashuvi tilshunoslik, semiotika va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan qimmatli bo‘lib, rus tilining chuqur qatlamlarini tushunishga yordam beradi.

N.D. Arutyunovning “Til va inson olami” tadqiqoti turli davrlar va turli xalqlar madaniyatiga tegishli universal terminlarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Lingvomadaniyatshunoslik, tilshunoslik va madaniyatshunoslikning o‘zaro chambarchas bog‘liqligini namoyon etadi. Bu ilmiy soha, tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki xalqning tafakkuri va dunyoqarashini shakllantiruvchi omil sifatida ko‘radi. Lingvokulturologiya va uning turli maktablari til va madaniyatning o‘zaro aloqalarini yanada chuqurroq o‘rganish imkonini yaratadi.

Lingvomadaniyatshunoslik — til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini, ular orasidagi bog‘liqlikni o‘rganadigan ilmiy soha sifatida o‘zining ahamiyatini kundankunga oshirib bormoqda. Til orqali madaniy qadriyatlar va milliy xususiyatlar namoyon bo‘lib, bu fan faqat tilning nutqdagi o‘rnini emas, balki tilning xalqlar tafakkuri va dunyoqarashiga qanday ta’sir ko‘rsatishini ham o‘rganadi. Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi XX asrning ikkinchi yarmida o‘zining alohida yo‘nalishini topdi, bu jarayonning muhim bosqichlari Gumboldt, Stepanov, Arutyunova va Teliya kabi olimlarning ilmiy merosi bilan bog‘liqdir.

Shunday qilib, lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatni o‘rganishda yangi yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fan nafaqat tilshunoslik, balki barcha madaniyatlarni o‘rganishga bo‘lgan yangi va keng qamrovli yondashuvni taqdim etadi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Арутюнова Н.Д., Язык и мир человека. –М.: «Языки русской культуры», 1999.
2. Арутюнова Н.Д., Язык и мир человека. –Москва, 1999.

3. В. Гумбольдт, Избранные труды по языкоznанию (пер. Г.В. Рамишвили). –Москва, 1984.
4. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г., Лингвострановедческая теория слова. –Москва, 1980.
5. Воробьёв В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. М: РУДН, 1997.
6. Ильинична П.В., Наука о языке ХХ-XXI в.в. и ее творческие лики. из жизни сектора общего языкоznания: т.в. Булыгина, Ю.С. Степанов, В.Н. Телия. Вопросы психолингвистики. ISSN 2077-5911. –Москва, 2020.
7. Красных В.В., Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. –Москва, 2002.
8. Левиной М.И., Гулыга О.А., Михайлова А.В., Старостина С.А., Журинской М.А., Язык и философия. –Москва, 1985.
9. Леонтович О.А., Введение в межкультурную коммуникацию. –М.: Гнозис, 2007.
10. Малхазова М.И., Лингвокультурология как самостоятельное направление лингвистики. – Москва, 2015.
11. Маслова В.В., Лингвокультурология. –Москва, 2001.
12. Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры. –Москва: Акад. проект, 2001.
13. Хроленко А.Т., Основы лингвокультурологии. –М.: Флинта: Наука, 2009.
14. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
15. [https://www.researchgate.net/publication/377579727_Lingvomadaniyatshun oslik](https://www.researchgate.net/publication/377579727_Lingvomadaniyatshunoslik)